

ONA TILI FANINING O`QITILISHIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO`YICHA TAVSIYALAR

Rasulova Mubina Sherzodbek qizi

Andijon Davlat Chet Tili Instituti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu ma'ruzada ona tili fanini o`qitishning ayrim muammolari va ularning yechimi bo`yicha ba'zi takliflar yoritib berilgan.*

Kalit so`zlar: *ona tili, ta'lim sifati, muammo va yechimlar, darslik, yechim va yondashuvlar.*

Bugungi kunda ona tilimizni puxta o`rganish, uning sofligini saqlab qolish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bilamizki, til ham ong singari qadimiydir. Til odamga fikr-o`y, his-tuyg`ular, o`zidagi haiqat va ilhom uchqunlarini ifodalash hamda o`zgalarga in`om etish uchun berilgan. Qanchalik so`z boyligimiz ko`p bo`lsa, boshqalarga ta`sir doiramiz, jamiyatdagi o`rnimiz ham shu qadar keng va beqiyos bo`ladi. Tilda xalqning bor-yo`g`i, unung butkul o`zligi gavdalanadi. Til- bu xalqning tarixi, taraqqiyot va madaniyat bosib o`tgan yo`li.

Ona tilimiz yetarli darajada boy, u eng nozik hissiyot va fikr rang-barangliklarini ifodalash uchun ham barcha vositalarga ega. Har yili daraxtlarning barg va yaproqlari yangilangani kabi tilimizdagi ko`plab so`lar ham o`z umrini yashab, yangi tug`ilayotganiga o`z o`rnini bo`shatib beradi. Shu bois tilimizning sofligi chetdan uzluksiz kirib kelayotgan o`zlashma so`zlar ko`lami kengayib bormoqda. Bu texnika asri ta`siridir, albatta. Ona tilimizning milliyligini, sofligini saqlab qolish, unga bo`lgan hurmat- e`tiborni oshirishda insonlarda bilim bo`lishi lozim. Bilim esa, albatta, maktabdagi fan o`qituvchilari tomonidan beriladi. Har bir yetishib kelayotgan yosh avlodning ona tilimizda ravon va mustaqil so`zlashida o`qituvchilarning xizmatlari benihoya cheksizdur. Ayniqsa, 2019-yili davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyevning "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to`g`risidagi Qarori o`zbek tiliga bo`lgan ehtiromning yanada yuksak namunasi bo`ldi.

Bugun ta'lim sohamizda ona tili fanini o`qitish bo`yicha, ya'ni til qonun-qoidalarini o`quvchilarga tushunarlik qilib yetkazib berishda ba'zi bir qiyinchiliklar ko`zga tashlanmoqda. Bu holatlar esa ta'lim sifatiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Ona tili fani ustozlarining maqsad va vazifalari shu qadar dolzarbki, ular har daqiqada yosh avlodga davlat tilidan saboq berayotganlarini unutmasliklari zarur. Ona tilimiz sofligini saqlab qolish, tilimizga bo`lgan faxr va iftixor tuyg`ularini kelajagimiz bo`lmish o`quvchilar ongiga chuqur singdirish O`zbekiston Respublikasining davlat tili bo`lmish o`zbek tiliga bo`lgan hurmat-e`tiborimiz belgisi hisoblanadi.

Ona tili o`qitishdagi asosiy muammolardan biri sinfda o`quvchilar sonining ko`pligidir, chunki o`quvchining uy ishini, sinf ishini tekshirishga vaqt yetmaydi, ya'ni

tabiiyki, o'qituvchi har bir o'quvchiga to'laqonli ravishda individual yondasha olmaydi. Ona tilini barcha fanlarning onasi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ona tilini puxta bilgan o'quvchi o'z-o'zidan boshqa fanlarni ham o'zlashtira oladi.

Men o'z tajribamdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlaymanki, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqining ravon emasligi ta'limda qandaydir jiddiy xatoga yo'l qo'yayotganimiz hosilasidir. O'quvchilarning nutq madaniyatini, notiqlik san'atini o'stirishimiz, yozma nutqdagi muammolarini vaqtida bartaraf etishimiz juda muhimdir.

Ona tili ta'limi o'quvchini so'z san'atiga olib kirishi lozim. Buning uchun esa til va adabiyot fanlari integratsiya masalasini mutlaqo qayta ko'rib chiqish kerak. So'z, ibora, maqol, matallar, ularning qo'llanishi, imlosi kabi masalalar maktab ona tili ta'limi mazmunining asosi, o'zagini tashkil etishi darkor. Adabiyot darslarida qaysi mavzular o'tilsa, ona tili darsliklarida ham o'sha mavzularga tayanch va mushtarak bo'la oluvchi materiallar o'zlashtirilishi kerak.

Yana bir muammolardan biri o'quv lug'atlari bilan ishlashning yetarlicha yo'lga qo'yilmaganidir. O'quv lug'atlari yaratilmas, o'quvchilarning stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko'plab o'quv lug'atlari turmas ekan, ona tili ta'limi o'zining haqiqiy mohiyatiga erisha olmaydi. Buning uchun o'quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilishi kerak. Darsliklardagi kamchiliklar ham tezroq bartaraf etilishi lozim.

Xulosa:

Bugungi kunda barchaning e'tibori Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan bo'lib, bunday mas'uliyatli ishlarda tayanch maktablar faoliyatini samarali tashkil etish uchun harakat qilinmoqda. Ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilari o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishni davlat darajasiga ko'tarish, o'quvchilardan matnlarni o'qib tushunish va o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalarini maqsad qilib olishimiz darkor. Qolaversa, zamon talabi bo'lib borayotgan chet tillarini o'qitishda ham ona tilini yaxshi bilish muhim omil sanaladi. Men o'z hamkasblarimni har tomonlama ziyrak, hushyor va serqirra inson bo'lishga, O'zbekistonimizning PISA dasturi doirasidagi tadqiqotlarda ilk bora ishtirok etayotganini hisobga olib, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga javobgar shaxs ekanimizni unutmazlikka chaqiraman!

Ona tilini o'qitishdagi farzandlarimizning bilimli, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikr, tafakkur sohiblari bo'lib voyaga yetishishlariga to'sqinlik qilayotgan muammolar haqidagi bu fikr va takliflarimizga soha mutasaddilari, mutaxassisleri, umuman, ta'lim fidoyilari befarq bo'lishmaydi, degan umiddaman. Zero, ona tili- millat ruhi, millat kelajagi ekanini unutmaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tafakkur gulshani. G`. G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. Toshkent 1989.
2. Shayxislamov N. Z. (2020). Tilshunoslik keng qamrovli fan sifatida. UzACADEMIA
3. Shahnoza Almatova & Maftuna Mamatqulova (2023). Ona tili fanini o`qitishda muammo va yechimlar.